

## SAVDO XIZMATLARI TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH MASALALARIGA TIZIMLI YONDOSHUV

**Maxmatqulov G‘olibjon Xolmuminovich**  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, i.f.f.d. (PhD)

### ANNOTATSIYA

Maqolada savdo xizmatlari tarmog‘ini rivojlantirishning kompleks tizimli masalasining o‘ziga xos xususiyatlari va ekonometrik modellashtirish zaruriyati tadqiq etilgan. Shuningdek, savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash ko‘rsatkichlarining istiqboldagi o‘zgarish tendensiyasining ilmiy bashorati zarurligi, mintaqada savdo xizmatlari barqaror o‘shish tendensiyasini aniqlash eng asosiy masalalar tizimini shakllantirish zaruriyati ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** savdo xizmatlari, kompleks tizim, innovatsion rivojlantirish, ekonometrik modellashtirish, modellashtirish zaruriyati, ekonometrik mezon, savdo xizmatlarini rivojlantirish.

### KIRISH

Yurtimizda olib borilayotgan islohatlar jarayonida, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan, zamonaviy bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlantirish yo‘liga o‘tishi bilan bog‘liq muammolarning echimiga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. 2018 yil 21 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5544-son Farmoni asosida joriy etilgan innovatsion rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi munosabati bilan mamlakatimiz 81 ta indikator bo‘yicha baholanadigan GII reytingida 2015 yilga nisbatan 36 ta pog‘onaga ko‘tarildi; innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat budjetidan ajratiladigan yillik mablag‘lar hajmi 2018 yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va 1,5 trillion so‘mga etkazildi; yosh olimlar 2018 yilda 6,5 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda ularning soni 10,8 ming nafarni tashkil etdi; oxirgi 4 yilda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo‘yicha maxsus institutlar (innovatsion jamg‘armalar, venchur tashkilotlar va boshqalar) soni 28 taga etkazildi va boshqa yutuqlarga erishildi. [1]

Shu bilan bir qatorda 2022 yil 6 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-165-son Farmoniga asosan “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi” qabul qilindi. Strategiyada yurtimizning innovatsion rivojlanishi uchun mavjud muammolar keltirib o‘tilgan bo‘lib, jumladan, quyidagilar keltirilgan: “aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama

ko'maklashish, ishsizlar, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta'minlashda innovatsiyalar yordamida ishlab chiqarish tashkilotlari va xizmat ko'rsatishning turlarini oshirish orqali ko'plab ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rag'batlantirish, hamda tarmoq tashkilotlari va klasterlar, venchur tashkilotlari va tegishli moliya bozorlarining turli vositalari ko'magida kapital yaratishni, ya'ni arzonlashtirilgan va hammabop ishlab chiqarishni («birni-mingga» aylantiradigan) ta'minlash tizimiga o'tishga katta ehtiyoj mavjud; hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlari ishlab chiqilmagan hamda ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasi uzluksiz yangilanishini ta'minlashga qaratilgan echimlarni joriy qilishda innovatsion texnologiyalarga urg'u va ustuvorlik berish talab qilinmoqda"[2].

Yana bir juda muxim jihat sifatida sun'iy intellekt, buyumlar interneti hamda raqamlashtirish texnologiyalarini joriy qilishni innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor sektorlari sifatida keltirilishidir.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da mamlakatimizning milliy savdo tizimidagi mavjud muammolar kompleks o'rganilishi asosida ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berildi va istiqboldagi maqsadli ko'rsatkichlari keltirib o'tildi. Tashqi va ichki savdo tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, tashqi savdo aloqalarini mustahkamlash, transport-logistika yo'nalishlarini rivojlantirish kabi masalalar qamrab olindi. Ichki savdo tizimida savdo xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muammolarni bartaraf etish mexanizmlari ko'rsatib o'tilgan, jumladan, Respublika hududlarida savdo va yo'l bo'yi xizmatlarining etarlicha innovatsion rivojlanmaganligi, uni bartaraf etish bo'yicha yangi zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari sonini oshirish, shuningdek, yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sektorini zamonaviy texnologiyalar asosida yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish kabi vazifalar belgilandi.

Savdo xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha muammolarning qo'yilishi uni echish vazifalarining belgilanish imkoniyati va vazifalar ijrosi bilan bog'liq murakkabliklarga ko'ra amalga oshiriladi. Ko'p hollarda o'rganilgan iqtisodiy jarayonda qo'yilgan muammolarni echish jarayonida obyektning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik xarakterdagi xususiyatlari miqdoriy jihatdan iqtisodiy va statistik tahlillarga tayanish, anketa so'rovnomalar natijalariga asoslangan sifat ko'rsatkichlari darajasini individual aniqlash bilan cheklanib qoladi. Mazkur turdagi tadqiqotlar obyekt sirtida yuz berayotgan jarayonlar bo'yicha xulosalar olib kelishi mumkin, biroq tub qonuniyatlarni ajratib ko'rsatish, ichki bog'liqliklarni aniqlash, bu asosida innovatsion rivojlanishning ustuvor omillarini, yo'nalishlarini asoslashga imkon bermaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'pgina xorijiy va yurtimiz iqtisodchi olimlari savdo xizmatlari bozorida zamonaviy marketing tamoyillari asosida samaradorlikni oshirish modellarini, zamonaviy rivojlanish talablari asosida ulgurji va chakana savdo korxonalarini tashkil etish va yangi texnologiyalar asosida rivojlantirishning turli modellarini taklif etishgan bo'lsada, bu modellar iqtisodiy-boshqaruv, marketing, tashkiliy xarakterdagi iqtisodiy qonuniyatlarni umumiy holda tushuntirish, ko'rsatkichlarning alohida holatida, bog'liqsiz baholash va tadqiq etish bilan cheklangan.[3]

Tabiiy ekstremal sharoitlar, xususan iqlim o'zgarishlarida iqtisodiy yalpi mahsuldorlik muaommolarini ko'p omilli tadqiq etishda trend modellarning zaruriyati to'g'risida xorijlik Miaomiao Vang, Uemin Jo kabi olimlarning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. Ular bir vaziyat uchun adekvatligi ta'minlangan bir necha trend modellarning eng ishonchli prognoz ko'rsatkichlari uchun tanlash mezonlarini o'rganganlar [4].

Qishloq xo'jaligi, xususan dehqonchilikning rivojlanishida global ekotizimning xavfli burilishlariga sabab bo'luvchi bir qator sababalarning yuzaga kelishining davriy qonuniyatlarini o'rganishda J.Norton va J.Raynerning ilmiy asarlarida trend modellashtirish tadbirlari keltiriladi. Unda iqtisodiy jarayonning vaqtga bog'liq jihatlarda trend modellashtirish ahamiyati keltirib o'tiladi [5].

## TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot jarayonida savdo xizmatlari tarmog'ini rivojlantirishning kompleks tizimli masalasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va ekonometrik modellashtirish zaruriyati tadqiq qilingan. Mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tanlanma kuzatish, analiz va sintez usullari qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning maqsadimiz, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida savdo xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yoki sohaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarini turlarga, guruxlarga ajratishga emas, balki, yuqoridagilarni maqsad qilgan tadqiqotlarga amaliy mazmun beruvchi, ustuvorlikga yo'l ko'rsatuvchi, natijalarini baholash uchun ilmiy mezon bo'luvchi mavjud qonuniyatlarning amaliy xarakterini ko'rsatish, istiqboldagi oqibati, natijalarini baholash, baholash natijalariga tayanib, rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, natijaviylikning yuzaga kelishida ta'sir etuvchilarning ichki va tashqi bog'liqliklarini tizimli yoki blokli tamoyillar asosida tadqiq etish yordamida, istiqboldagi maqsadli ko'rsatkichlarning mumkin bo'lgan chegaraviy o'zgarishlarini aniqlashga yo'naltirilgandir.

Shu sababali, tadqiq etilayotgan iqtisodiy muammolarning ko'lami, mohiyati, ba'zi cheklanishlardan og'ishi kuzatiladi, shuningdek, maqsadni amalga oshirishda belgilangan vazifalarning ijro usullari, mexanizmlari, vositalari o'ziga xosligi

ta'minlanadi.

Sohani tadqiq etishda ekonometrik tadqiqotlarning o'tkazilmaganligi, yoki etarli emasligi, savdo xizmatlari tarmog'idagi iqtisodiy muammolarning qo'yilishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqotning ekonometrik qamrovi esa muammoga chuqurroq yondashish imkoniyatini oshiradi.

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish strategik xarakterga ega bo'lishligi uchun uning qamrov darajasi sohadagi dolzarblik jihatdan ahamiyatli, tizimli ta'sir ostida shakllanuvchi, natijasi eng muxim soha indikatorlari o'zgarishiga bevosita bog'langan, ustuvorlik elementlarini mujassam etgan masalalarning o'zaro bog'liq, tizimlashgan kompleksidan iborat bo'lishi talab etiladi.

Shunday kompleks o'ziga xos ravishda shakllantirib olindi. Uning darajasini, to'liqligini, ahamiyatini sohani tadqiq etishda modellashtirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi masalalar dolzarbligini bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Quyida ekonometrik tadqiq etilishi zarur bo'lgan savdo xizmatlari tarmog'ining komplekslashgan tizimli masalalari keltirib o'tildi (1.1-jadval).[6,7]

Xududiy jihatdan ma'lum bir iqtisodiy sektorni rivojlantirish takliflari uchun avvalo uning mintaqada rivojlanish tendensiyasini tadqiq etishga to'g'ri keladi. Bunda apparat statistik tahlil bo'lib, bu bilan cheklanish muxim xulosalarga kelishga yetarli bo'lmaydi. Asosiy tendensiya ko'rsatkichlari ikki xududiy kenglikda statistik tahlil etilganda yuzaga keluvchi hosilaviy ko'rsatkichlar (nisbiy, absolyut farqlar va h.z.) oddiy axborot ko'rsatkichi sifatida baholanib, omil sifatida baholashga imkon bermaydi. Bu ekonometrik tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish mintaqaning innovatsion rivojlanish va iqtisodiy salohiyatiga asoslanadi. Bu yerda tarmoqning o'zini-o'zi rivojlantirish xususiyatining muxim elementi aks etadi. Shu sababli xududning iqtisodiy salohiyatini oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholash masalasiga alohida e'tibor qaratish kerak. Bu yerda iqtisodiy salohiyati dinamikasining nisbiylik ko'rsatkichi bilan unga ta'sir etuvchi omillar sifatida savdo xizmatlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha olingan nisbat chiziqlarining o'zgarish tendensiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, ta'sir darajasini baholash muxim ahamiyatga ega bo'ladi. [8,9,10]

Shuningdek, savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash ko'rsatkichlarining istiqboldagi o'zgarish tendensiyasining ilmiy bashorati zarur (1-jadval).

**1-jadval.**

**Savdo xizmatlari tarmog'ini rivojlantirishning kompleks tizimli masalalari**

Iqtisodiy muammoning qo'yilishi (tor ma'noda)	Tizimlashgan shakli	Yechimga ega bo'lish mexanizmi (ilmiy asoslash)
Mintaqada sohaning rivojlanish tendensiyasida muxim ahamiyatli asosiy va hosilaviy belgilarni ajratish	Sohaning rivojlanish tendensiyasi uchun muxim ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, o'zaro va kompleks ta'sirini baholash	Statistik va ekonometrik tahlil o'tkazish, baholashning adekvat empirik modellarini ishlab chiqish
Mintaqaning iqtisodiy salohiya-tini oshirish dinamikasida savdo xizmatlari salmog'ini tarkibiy baholash	Iqtisodiy salohiyatni oshirish dinamikasida nisbiylik ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish, tizimning salbiy nisbati-ni aniqlash	Ekonometrik tahlil o'tkazish, nisbiylik ko'rsatkichlarining o'zaro ta'sirini baholashning adekvat dinamik ekonometrik modellarini ishlab chiqish
Mintaqaning aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash	Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholash omillari tizimini shakllantirish, bog'lanish shaklini yaratish, salohiyatning samaradorlikni ta'minlash darajasini aniqlash	Ekonometrik tahlil o'tkazish, ta'sir omillarining prognoz qiymatlarini hisoblash uchun adekvat ekonometrik modellar ishlab chiqish
Mintaqada savdo xizmatlari barqaror o'sish tendensiyasini aniqlash mezonlarini yaratish	Savdo xizmatlarini rivojlantirishning istiqbolda shartli iqtisodiy o'sish darajasini belgilab beruvchi rivojlanishning asimptotik chizig'ini aniqlovchi mezonlar tizimini ishlab chiqish	Sohaviy ko'rsatkichlar bo'yicha balans tenglamalarini qurish, Tarmoqlararo tendensiyalar chizig'ini aniqlash, tendensiya-ning barqarorlikga erishish shartini ifoda etuvchi murakkab, vaqtga va o'lchovli funksiyaga bog'liq ekonometrik modelini - asimptotik chizig'ini aniqlovchi mezonlar ifodasini qurish
Savdo korxonalarining raqobat-bardosh innovatsion faoliyatini tashkil etish	Sog'lom raqobat muxitida savdo korxonalarining innovatsion faoliyatini tashkil etishning asosiy omillarini aniqlash, innovatsion faoliyat bo'yicha samaradorlik indeksini hisoblash	Savdo korxonalarining raqobat-bardosh innovatsion faoliyati bo'yicha samaradorlik indeksini hisoblash algoritmini ishlab chiqish
Mintaqada savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning istiqbolli asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash	Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning istiqbolli ustuvor yo'nalishlarini belgilash	Ko'p ssenariyli prognozlashtirishning adekvat modellarini ishlab chiqish

Mintaqada savdo xizmatlari barqaror o'sish tendensiyasini aniqlash eng asosiy masalalar tizimini shakllantirishni talab etadi. Bu yerda shunday mezonlar ishlab

chiqilishi talab etiladiki, bu istiqbolda uzoq muddatli sohaning maqsadli iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va ularning parametrlari uchun asimptotik chizig'ini aniqlab berishi kerak bo'ladi. Bu yerda asimptotik funksiya ekonometrik bog'liqlar natijasida kelib chiqadi.

Sog'lom raqobat muxitida savdo korxonalarining innovatsion faoliyatini tashkil etishda raqobatchi subyektlarning o'zaro, hamda turlararo sog'lom raqobatini ta'minlovchi omillarni aniqlash muammosi qo'yiladi. Bu masalani yechishning yagona quroli raqobat jarayonini ekonometrik modellashtirishdir.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning ustuvor omillari, yo'nalishlari, istiqbolda ularning, sohaviy asosiy indikatorlari o'sish tendensiyasiga ega bo'lishini qa'tiy ta'minlash darajasiga qarab mos ravishda aniqlanadi va belgilanadi. Bu yerda omillarning ta'sir darajasini baholash, unga ko'ra tanlanganlarning kelgusi davrlar uchun prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash, erishilgan natijalar ta'siri ostida kelib chiquvchi asosiy indikatorlarning istiqboldagi o'zgarishlarini samaradorlik tamoyili asosida baholash yordamida, sohani rivojlantirish yo'nalishni belgilash imkoniyati yaratiladi.

Bizningcha, iste'molchiga keng qulayliklar yaratilgan savdo tizimini yo'lga qo'yish, sohaning aholi turmush tarzini yaxshilashga olib keluvchi funkcionalligini ko'paytirish, savdo xizmatlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish, savdo korxonalarini optimal joylashtirish taqsimotini amalga oshirish, savdo tarmog'ining bandlikni ta'minlash xususiyatini kuchaytirish, tarmoqni resurs tejankor sohaga aylantirish, uning investitsiya jozibadorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning muxim omillaridan biriga aylantirish innovatsion rivojlantirishning eng asosiy vazifalari hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmoni. 2022 yil 6 iyul, Toshkent shahri //QMMB: 06/22/165/0615-son, 07.07.2022// Elektron manba: <https://lex.uz/pdfs/6102462>
- 2.2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi. //O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-165-son Farmoniga 1-ilova. 2022 yil 6 iyul, Toshkent shahri //QMMB: 06/22/165/0615-son, 07.07.2022// Elektron manba: <https://lex.uz/pdfs/6102462>
- 3.Ohud Almutairi et al. Performance Modelling of the Impact of Cyber Attacks on a Web-based Sales System. Electronic Notes in Theoretical Computer Science. Volume

353, 1 November 2020, Pages 5-20 //

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1571066120300712> ;

4. Miaomiao Wang, Shaoqiang Wang, Jian Zhao, Weimin Ju, Zhuo Hao. Global positive gross primary productivity extremes and climate contributions during 1982–2016. *Remote Sensing of Environment*.774 (2021), 145703

5. Alexander J. Norton, Peter J. Rayner. Hydrologic connectivity drives extremes and high variability in vegetation productivity across Australian arid and semi-arid ecosystems. *Remote Sensing of Environment*.272 (2022), 112937

6. Maxmatqulov G'.X. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (Qashqadaryo viloyati misolida). *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(4), 381–386. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/610>

7. Maxmatqulov G'.X Savdo xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida raqamlashtirishning ahamiyati "Biznes-Ekspert" jurnali 2021 yil 5 (161)-son 36-41b.

8. Maxmatqulov G'.X Raqamli texnologiyalar asosida savdo xizmatlari sifatini oshirish «Innovatsion iqtisodiyot: muammo, tahlil va rivojlanish istiqbollari» qarshi 2021 270-273 b.

9. Maxmatkulov, G. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (Qashqadaryo viloyati misolida). *Ekonomika i obrazovaniye*, 23(4), 381-386.

10. Raximov, A. (2022). Aholiga yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojida ichki va yondosh tarmoqlarning ta'sirini baholash (Qashqadaryo viloyati misolida). *Ekonomika i obrazovaniye*, 23(4), 397-402.

11. JO'RAYEV, F. D. Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the 584 kashkadarya region). *Экономика*, 8, 584-590.

12. Жўраев, Ф. Д., & Аралов, Г. М. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. *Educational research in universal sciences*, 2(2), 36-43.

13. Жўраев, Ф. Д. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли прогнозлаштириш. *Инновацион технологиялар*, (2 (42)), 92-95.

14. Jo'rayev, F. D. S., & Ochilov, M. A. (2023). Algorithms for multi-factory polynomial modeling of technological processes. *Chemical Technology, Control and Management*, 2023(1), 59-67.

15. Juraev, F. D., Mallaev, A. R., Aralov, G. M., Ibragimov, B. S., & Ibragimov, I. (2023). Algorithms for improving the process of modeling complex systems based on big data: On the example of regional agricultural production. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 392, p. 01050). EDP Sciences.

16. Rakhimov, A. N., & Jo'rayev, F. D. (2022). A Systematic Approach To The Methodology Of Agricultural Development And The Strategy Of Econometric Modeling. *resmilitaris*, 12(4), 2164-2174.

17. Жўраев, Ф. Д., & Аралов, Ғ. М. (2023). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(4), 31–43. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2870>